DOI

Zulaypoyeva G.U.
FarPI O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi o‘qituvchisi
Davronova Mubinabunu Elyorovna,
FarPI Kompyuterlashgan loyihalash
tizimlari fakulteti 2- bosqich talabasi

RITORIK SO‘ROQ VA RITORIK MUROJAAT POETIK FIGURALARI HAQIDA

ANNOTATSIYA
Ushbu maqola ritorik so‘roq figurasining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi xususida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, shoir Iqbol Mirzoning ushbu figuradan foydalangani misol va tahlillar asosida yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *poetik figura,ritorik so‘roq, ritorik murojaat.*

Zulaypoyeva G.U.
FarPI teacher of the Department of teaching
Uzbek language and languages
Davrova Mubinabunu Elyorovna,
FarPI computerized design
2nd Level student of the Faculty of systems

RHETORICAL QUESTIONING AND RHETORICAL APPEAL ABOUT POETIC FIGURES

ANNOTATION
This article discusses the study of the figure of rhetorical question in Uzbek linguistics. Also, the poet Iqbal Mirza's use of this figure is highlighted on the basis of examples and analysis.
Key words: *poetic figure, rhetorical question, rhetorical appeal.*

Ritorik (*grekcha* rhetor-“notiq”) so‘roq gaplarda ifodalangan fikr sof emas: subyekt yangi informatsiya olishni ko‘zda tutmaydi, so‘roq javob talab qilmaydi, balki so‘roq orqali hukm ifodalanadi. Ritorik so‘roq faqat so‘roq shaklida ifodalanib, kuchaytirishdan iborat uslubiy san’at; javob talab qilmaydigan so‘roq [5]. Ritorik so‘roq – “poetik fikrni so‘roq shaklida tasdiqlashdir, ya’ni so‘roqning

[5]Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. 85-бет

https://wordlyknowledge.uz

o‘zida javob ham mujassamlashgan bo‘ladi; faqat fikr yorqinlashib, teranlashib, estetik ta’sirdolikni yuzaga keltiradi.” [6]

Ritorik so‘roq gaplar ekspressiv funksiya bajaradi. Ular ko‘tarinki, kuchli emotsiya bilan aytiladi. Emotsiya esa, bir tomondan zaruriyatning konkret texnik formasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan individ zaruriyati nuqtayi nazardan vaziyatni baholash, qayta sozlash, uni zaruriy harakatga tayyorlash mexanizmidir.

Ritorik so‘roq gaplar badiiy va publisistik uslublar uchun tipik bo‘lib, ba’zan so‘zlashuv uslubida ham uchraydi. Bunda ritorik so‘roqlar fikrni ta’sirchan ifodalaydi. Umuman, ritorik so‘roq gaplar nutqda kuchli stilistik vosita bo‘lib xizmat qiladi [7].

Odatda so‘roq gaplar so‘zlovchiga noma’lum bo‘lgan narsa hodisa va harakatlarini so‘rash uchun ishlatiladi. Albatta, so‘roq gaplar javob talab qiladi. Lekin, so‘roqning shunday turi ham borki, u javob talab qilmaydi, his – hayajon bilan aytiladi, yashirin tasdiq yoki yashirin inkorni ifodalaydi. U ritorik so‘roqdir. Boshqacha aytganda, so‘roqda javob mujassam bo‘ladi. Ritorik so‘roq gaplarda ohang muhim bo‘lib, u tasviriylikni oshiradi, ta’sirchanlikni tasvirlaydi. Masalan: Farzandni kim sevmaydi!? (Hamma sevadi – yashirin tasdiq). O‘zingdan chiqqan baloga, qayerga borasan davoga?! (Hech qayerga – yashirin inkor)[8].

Ko‘pincha ritorik so‘roq gaplar tarkibida kuchaytiruv-ta’kid yuklamalardan keng foydalaniladi. Masalan, *nahotki, axir, hatto* va hokazo. Ular nutqqa ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi hamda tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta’kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g‘azab va nafratlanishini ifodalashda juda qo‘l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va diologik nutqlarda keng qo‘llaniladi.

Ritorik so‘roq ─ ko‘tarinki, kuchli emotsiya bilan aytiluvchi, ekspressiv vazifa bajarish uchun xizmat qiluvchi uslubiy vosita. Ritorik so‘roq gap so‘roq gapning turli-tuman ma’nolarini, his-tuyg‘ularni va so‘zlovchining voqelikka turlicha munosabatini ifodalaydi. Ritorik so‘roq gaplarning mazmunidan tasdiq, xabar mazmuni anglashib turadi, shu sababli ritorik gaplar adabiy tilda emotsional ma’nolarni ifodalash uchun stilistik vosita bo‘ladi. Ayrim ritorik soroq gaplardan so‘ng unga javob bo‘la oladigan gaplar ham keladi. Bunday gaplar ritorik so‘roq gaplarga aynan javob tarzida bo‘lmasa-da, mazmunan ularning yakuni ekanligi bilinib turadi. Masalan:

Sevgilim,
lutf etmak shunchalar mushkulmi?
Qo‘l cho‘zmoq shunchalar keldimi malol?
Axir, bu yolg‘on-ku, axir, tushungin,

---

[6] N.Hotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati.T.,”o‘qituvchi”, 1979.

[7] Шомақсудов А.,Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ.Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент:Ўқитувчи, 1983.235-бет

[8] S.Rahmonova. Nutq madaniyati.Ma’ruzalar matni.T.2008. 37-bet

https://wordlyknowledge.uz

Axir, bu-ertak-ku, axir, bu-xayol…

(I.Mirzo. "Sevgilim", 46-bet)

Ritorik so‘roq gaplar ikki xil vazifa bajaradi: tinglovchiga qandaydir ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallanadi va faqat ekspressivlik ifodalaydi. Ritorik so‘roq gaplar badiiy va publitsistik uslublar uchun tipik bo‘lib, ba’zan so‘zlashuv uslubida ham uchraydi. Bunda ritorik so‘roqlar fikrni ta’sirchan ifodalaydi. Umuman, ritorik so‘roq gaplar nutqda kuchli stilistik vosita bo‘lib xizmat qiladi[9]. Ritorik so‘roq - javobi oldindan ma’lum bo‘lgan savol yoki so‘rovchining o‘zi javobini beruvchi savol ifodalovchi figura sanaladi.

Ritorik xitob - hissiyotning eng yuqori nuqtasi. Ritorik xitob muallifning turli xil hissiyotlarini berishda o‘ziga xos figura hisoblanadi, ya’ni muallif (lirik qahramon) ning hayratlanishi, xursandchiligi, qayg‘usi, iztirobi va boshqa hissiyotlarini ifodalaydi. Ritorik xitobni o‘qishda undov ohang bilan beriladi va undov belgisi qo‘yiladi.

Ritorik murojaat - shartli xarakterga ega murojaat. Unda asosiy rolni matn emas, balki murojaat ohangi o‘ynaydi. Ritorik murojaat ko‘pincha monologlarda uchraydi. Ritorik so‘roq va ritorik murojaat (ritorik undov) gaplar ham emotsionallik nuqtayi nazaridan badiiy uslubda ma’lum qimmatga ega.Ritorik murojaat – (ritorik nido, ritorik xitob, ritorik g‘azab, ritorik undov va h.z) – poetik figuralardan biri bo‘lib, unda personajlarning yuzlab hissiyotlari ko‘tarinki, tantanali, kulgili, kesatiqli, g‘azabli ifodasidir.

Ritorik murojaatdan nutqqa tantanavorlik ruhini berish uchun foydalaniladi. Murojaat birliklarini tahlil qilgan Ahmedova N.Sh o‘zining nomzodlik dessertatsiyasida bunday birliklarni 3 guruhga bo‘ladi: "Davomiylik belgisiga ega bo‘lgan murojaat birliklari nutqda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (subyektiv munosabat-salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash), emotiv (hissiy munosabat) kabi funksiyalarni bajaradi"[10]. Shunga ko‘ra, ritorik murojaatning stilistik imkoniyatlari emotiv, ya’ni hissiy munosabatni hosil qiluvchi funksiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ritorik murojaatning badiiy matnda qo‘llanilishini o‘rganishda kim kimga, nimaga, qanday holatda, qanday nutqiy vaziyatda murojaat qilinayotganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Murojaat qilinayotgan obyekt shaxs emas, ba’zan narsa-buyum ham bo‘lishi mumkin. Masalan:

Meni eslaysanmi, oy tilib-tilib,
Qiyqimlagan baxmalim-yalpiz?
Kimni izlayapsan, chuvalchang bo‘lib
O‘rmalab ketgan ildiz?

(I.Mirzo. "Meni eslaysanmi?", 142-bet.1992-bet)

[9] Шомақсудов А.,Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент:Ўқитувчи, 1983.235-бет
[10]Ahmedova N.O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi.Filol.fan.nom.diss...-T,2008

https://wordlyknowledge.uz

Ritorik murojaat tahlil qilinayotganda, yozuvchi yoki shoirning murojaat qilishdan maqsadi va badiiy niyati nimadan iborat ekanligi, murojaat birliklaridagi denotativ va konnotativ ma'nolari ham aniqlanadi.

Ritorik murojaatda ritorik so'roqda bo'lgani kabi javob talab qilinmaydi, balki "obyektga e'tiborni kuchaytiradi va kitobxonda biror munosabatni uyg'otadi"[11]. Asosan, "shoirning poetik nutqda o'zi xohlagan intonatsiyasini ─ tantanavorlik, ko'tarinkilik, g'azabkorlik, kesatish kabilarni ifodalashda" keng foydalaniladi[12].

Dili yo'q dilrabolar,
Bemehr bevafolar.
Sevgi degan kasalga
Topilgaymi davolar?

(I.Mirzo. Topilgaymi.. 9-bet)

Yuqoridagi misolda so'zlovchining g'azab va nafrati mohirona tarzda o'z ifodasini topgan hamda ritorik xitob murojaat ikkinchi shaxsga qaratilmoqda. Matn tarkibidagi barcha emotsional gaplar mazmunida inkor javobi mavjud. Ritorik so'roqni yuzaga chiqaruvchi vositaga *–mi* so'roq yuklamasini olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. А.Ҳожиев. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
2. A.Zunnunov, N.Hotamov. Adabiyot nazariyasida qo'llanma. Toshkent:O'qituvchi, 1998.
3. N.Hotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.T.,"o'qituvchi", 1979.
4. S Rahmonova. Nutq madaniyati. Ma'ruzalar matni.T.2008.
5. N.Ahmedova. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi.Filol.fan.nom.diss...-T,2008.
6. T. Boboyev , Z. Boboyeva. Badiiy san'atlar.-Toshkent:TDPU,2001.
7. Шомақсудов А.,Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент:Ўқитувчи, 1983.
8. www.kh-davron.uz.

[11] Boboyev T,Boboyeva Z.Badiiy san'atlar.-Toshkent:TDPU,2001,91-bet
[12] Zunnunov A.Hotamov N.Adabiyot nazariyasidan qo'llanma.Toshkent:O'qituvchi, 1998,101-bet.

https://wordlyknowledge.uz